



<https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i07.124>

O'QUV JARAYONINI RAQAMLASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLARI

Matyoqubova Guzal Rixsivoyevna

TDYU huzuridagi M.Vosiqova nomidagi akademik litsey o'qituvchisi

Elektron pochta: guzalina0302@gmail.com

Tel: +998 8520302

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonining ahamiyati hamda uning zamonaviy ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. O'quv jarayonini raqamlashtirishda yuzaga kelayotgan asosiy muammolar, jumladan texnik infratuzilma yetishmovchiligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalari darajasi, elektron ta'lim resurslari sifati va axborot xavfsizligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari va ularning ta'lim tizimiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, axborot texnologiyalari, elektron ta'lim, raqamli transformatsiya, o'quv jarayoni, pedagog kompetensiyasi, axborot xavfsizligi

ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация: В статье анализируется значение цифровизации в системе образования и её влияние на современный образовательный процесс. Рассматриваются основные проблемы цифровизации обучения, включая недостаток технической инфраструктуры, уровень цифровых компетенций педагогов, качество электронных образовательных ресурсов и вопросы информационной безопасности. Также анализируются процессы цифровой трансформации в Узбекистане и их влияние на сферу образования.

Ключевые слова: цифровое образование, информационные технологии, электронное обучение, цифровая трансформация, образовательный процесс, компетенции педагогов

PROBLEMS OF DIGITALIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation: This article analyzes the importance of digitalization in the education system and its impact on the modern educational process. It examines key challenges such as insufficient technical infrastructure, teachers' digital competencies, quality of e-learning

resources, and information security issues. The paper also explores digital transformation processes in Uzbekistan and their influence on education.

Key words: digital education, information technologies, e-learning, digital transformation, educational process, teacher competencies

KIRISH.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga chuqur kirib bormoqda. Ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayoni o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonni amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish va hal etish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar tahlili, taqqoslash va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Farg‘ona davlat universiteti dotsenti V.Jurayevning fikricha raqamli texnologiyalarning quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

- Katta ma'lumotlar
- Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari
- Sanoat interneti
- Sun'iy intellekt
- Simsiz aloqa texnologiyalari
- Robototexnika va sensor komponentlari
- Kvant texnologiyalari
- Taqsimlangan ro'yxatga olish tizimlari
- Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari

Shuningdek, “Raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o'sishga ham zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi va korrupsiyaga chek qo'yadi. Bu, iqtisodiyot va boshqa sohalarda ishlab chiqarish va xizmatlarni samaraliroq qiladi hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi” deb hisoblaydi dotsent V.Jurayev.

O‘quv jarayonini raqamlashtirish zamonaviy jamiyatning muhim talabi hisoblanadi. Chunki bugungi kunda axborot oqimi juda tez sur’atlar bilan ortib bormoqda va an’anaviy ta’lim usullari bu jarayonni to‘liq qamrab olishga qodir emas. Shu sababli ko‘plab davlatlarda elektron ta’lim, masofaviy ta’lim hamda raqamli ta’lim platformalari keng joriy etilmoqda.

Ta’lim texnologiyalari (EdTech) bo‘yicha dunyoga mashhur amerikalik olim va professor Robert Kozmaning fikricha, muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki uning ijtimoiy va iqtisodiy kontekstga moslashmaganida. U "texnologiya ta’limni o‘zi o‘zgartirmaydi, uni o‘qituvchi qanday qo‘llashi o‘zgartiradi" degan g‘oyani ilgari suradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat xizmatlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri Raqamli Toshkent dasturi bo‘lib, ushbu dastur

poytaxt infratuzilmasini raqamlashtirish, zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish hamda aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishni maqsad qilgan.

Mazkur dastur doirasida ta‘lim muassasalarida ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Biroq ta‘lim tizimida raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish davomida bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta‘lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Elektron ta‘lim platformalari, onlayn kurslar va interaktiv o‘quv resurslari o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot loyihalarini joriy etish va raqamli ta‘limni kengaytirish bo‘yicha kompleks tadbirlar belgilangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonini raqamlashtirish ta‘lim samaradorligini oshiradi, biroq bir qator muammolar mavjud:

Texnik infratuzilma muammolari – ayrim ta‘lim muassasalarida zamonaviy texnika va internet yetishmasligi. Ta‘lim tizimida raqamlashtirish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan texnik infratuzilmaga bog‘liq. Zamonaviy kompyuter texnikasi, yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i hamda raqamli platformalarning mavjudligi o‘quv jarayonining samarali tashkil etilishida muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Raqamli Toshkent dasturi doirasida shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Biroq ayrim ta‘lim muassasalarida texnik vositalarning yetarli emasligi hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyasi – o‘qituvchilarning IT ko‘nikmalari yetarli emasligi. Raqamli ta‘limni joriy etishda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun pedagoglar axborot texnologiyalarini chuqur bilishlari zarur. Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni yangi pedagogik va texnologik yondashuvlarga o‘rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda ta‘lim tizimini raqamlashtirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, boshqaruvni optimallashtirish hamda ta‘lim sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, bu jarayon bir qator muammolar bilan ham kechmoqda.

Shuningdek, ta‘lim tizimini raqamlashtirish jarayonida tashkiliy va boshqaruvdagi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Ta‘lim boshqaruvi bir vaqtning o‘zida davlat siyosatini amalga oshiruvchi tizim va hududiy manfaatlarni ifodalovchi tuzilma sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa vakolat va mas’uliyatlarning aniq taqsimlanmasligiga olib keladi.

Axborot xavfsizligi muammosi esa bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligini ta’minlash ham dolzarb masalalardan biridir. Elektron platformalarda o‘quvchilar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlari saqlanadi. Shuning uchun ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish zarur.

O‘quv jarayonini raqamlashtirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishidir. Bu jarayon ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilsa-da, uni samarali amalga oshirish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash zarur.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayonini raqamlashtirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, jumladan Raqamli Toshkent dasturi, ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, texnik infratuzilma, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi hamda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish zarur. Ushbu muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish orqali ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyati yanada kengayadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-iyuldagi 443-son qarori. “Raqamli Toshkent” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2020.
3. Jurayev V.T. Digital Transformation of Educational Management System // Web of Semantic: Universal Journal on IE Education. – 2023. – Vol. 2, Issue 4. – URL: <https://media.neliti.com/media/publications/587467-digital-transformation-of-educational-ma-33d5338d.pdf>
4. Begimqulov U., Yuldashev U. Axborot texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 256 b